

## O‘ZBEK XALQ O‘LANLARINING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Shahodatxon Xabitovna Imomnazarova  
shakhodakhoni@gmail.com

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

**Annotatsiya:** Maqolada an’anaviy xalq o‘lanlarining folklor san’atidagi o‘rni va badiiy-estetik vazifalari tadqiq etilgan. Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanidagi “Chashma” folklor-etnografik jamoasi repertuaridagi o‘lanlarni o‘tgan asrda yozib olingan folklor materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida janr evolyusiyasi va uning tarixiy taraqqiyoti masalalari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, o‘lan janri, o‘xshatish, o‘zbek xalq qo‘shiqlari, poetik detal, badiiy struktura, badihago‘ylik, she‘r tuzilishi

## ARTISTIC AND AESTHETIC TASKS OF UZBEK PEOPLE

Shahodatkhan Habitovna Imomnazarova  
shakhodakhoni@gmail.com

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of Academy of Sciences of  
Republic of Uzbekistan

**Abstract:** In this article the author investigated traditional national ulan’s place at folklore’s art and their artistic - aesthetic tasks. She studied the problems of genre’s evolution and its historical development on the basis of comparative analyses of ulans from the repertoire of Namangan region Yangikurgan district’s folklore-etnographic team “Chashma” with the folklore materials which were recorded last century.

**Keywords:** folklore, genre улан, comparison, uzbek public canto, poetical detail, artistic structure, improvisation, versification

Ma’lumki, o‘zbek folklori juda boy va rang-barang. O‘lan, lapar, kelin salom, yor-yor, olqish va alla kabi janrlar xalq ijodining yuksak salohiyatini namoyon qiladi. Ularning har biri muayyan urf-odatlar, marosimlar va xalq an’analari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, inson hayotining turli jihatlarini aks ettiradi. Badiiy salohiyati yuksak bo‘lgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy ma’naviy qadriyatlar tizimida ushbu turfa janrlar muhim o‘rin tutadi. Bu janrlar nafaqat xalq hayotini aks ettiradi, balki milliy badiiy tafakkur, hayotga munosabat va estetik dunyoqarashni ham o‘zida mujassam etadi. Ular xalqning hikmatli so‘zlariga, obrazli fikr yuritishiga va ijodiy

qudratiga guvohlik beradi. Shuningdek, bu asarlar orqali xalqning turmush tarzi, odatlari va ruhiy dunyosi haqida bebaho ma'lumotlar olamiz.

Xalq badiiy tafakkurining betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan folklor asarlari asrlar davomida yaratilib, muttasil rivojlanib kelgan muhtasham ma'naviy qadriyatlar silsilasi hisoblanadi.

Folklor asarlarining yaratilishi, ijro etilishi va taraqqiy etishi tarixiy-folkloriy jarayon tarzida voqelangan bo'lib, uning har bir davrdagi holati o'ziga xoslik kasb etadi. Shuning uchun ham tarixiy-folkloriy jarayonning globallashuv jarayonlari keskin rivojlanib borayotgan va texnologiyalar yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi davrdagi xususiyatlari, xalq og'zaki badiiy ijodi an'anaviy janrlarining ijro holati va hayotiy-maishiy vazifalarini o'rganish folklorshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Folklor janrlarining funksional tabiati va jonli ijro holatidagi ommalashish xususiyatlari davrlar o'tishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchrashi, xususan, tarixiy-folkloriy jarayon davomida ba'zi janrlar yo'qolib, yangilari yuzaga kelishi, janrlararo munosabatlarning yangicha shakllari paydo bo'lishi, xalq ijodining qamrovi muttasil takomillashib borishi tabiiydir. Ayni holatni o'zbek folklorining qadimiy namunalaridan biri hisoblangan o'lan janrining tarixiy taraqqiyoti misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, folklor janrlarining hozirgi ijro holati va ommalashish tarziga nazar tashlansa, quyidagi ikki holat ko'zga tashlanadi:

a) folklor ijrochilarining bevosita jonli ijrosi, ya'ni janrning an'anaviy ijro holati;

b) folklor asarlarining sahnaviy talqinlari, ya'ni xalq ijodi asarining ikkilamchi ijro holati.

O'zbek xalq o'lanchiligida ham hozirgi kunda ana shu ikki holat mavjud bo'lib, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyatining tog'lik hududlari, Jizzax viloyatining Zomin, Forish, Baxmal tumanlari, Samarqand viloyatining Bulung'ur, Qo'shrobd, Paxtachi tumanlari, Navoiy viloyatining Nurota, Xatirchi, Navbahor tumanlarida o'lanlarni ijro etish an'anasi xalq orasida davom etib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'lan janriga oid materiallardan turli madaniy tadbirlarda, xususan, navro'z bayrami tantanalarida, xalq sayillarida, shuningdek, folklor-etnografik jamoalari repertuarida keng ko'lamda foydalanilmoqda. Folklor-etnografik jamoalar repertuaridan o'rin olgan o'lanlar muayyan teatrlashtirilgan sahnaviy tomosha asarining tarkibiy qismi sifatida ijro etiladi. O'lan matnlarining bunday ommalashish tarzi o'zining funksiyasi va ijro xususiyatlariga ko'ra mazkur janrning tabiiy ijro holatidan farqlanib turadi. Fikrimiz isboti tariqasida xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan qadimiy qo'shiqlarning o'ziga xos sahnaviy talqinini yaratish orqali, an'anaviy folklori yangicha holatda rivojlantirishga, boyitishga qatta hissa qo'shib kelayotgan folklor

jamoalaridan biri Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi "Chashma" folklor-etnografik jamoasi repertuarida qayd etilgan o'lanlar tahliliga e'tiborni qarataylik.

O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari, hozirgi tarixiy-folkloriy jarayon, folklor-etnografik jamoalar repertuaridagi folklor asarlari badiiyati, postfolklor masalalarini ilmiy tadqiq etishda xalq og'zaki badiiy ijodining o'ziga xos jihatlarini saqlovchi, rivojlantiruvchi va kelgusi avlodlarga yetkazishda folklor-etnografik jamoalari repertuaridagi asarlarning roli beqiyosdir [1]. Shuning uchun ham folklor-etnografik jamoalar repertuaridagi asarlarni an'anaviy folklor namunasi sifatida emas, balki folklorizm namunasi deb qarash ma'qulroqdir [2]. Agar ana shu nuqtai nazardan, "Chashma" folklor-etnografik jamoasi repertuariga nazar tashlasak, unda Namangan viloyati hududida qadimdan ijro etib kelingan ko'plab an'anaviy qo'shiqlar qatorida o'lan janri namunalari ham muhim o'rin tutishining guvohi bo'lamiz.

2000 yilda Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tuman hokimligi madaniyat bo'limi huzurida tashkil etilgan "Chashma" folklor-etnografik jamoasining tarkibi nisbatan ixcham (13 kishidan iborat) bo'lsa-da, o'zining betakror qo'shiqchilik mahorati va repertuarining tuman folklori materiallaridan tuzilganligi bilan tomoshabinlar e'tiboriga tushgan. Bu folklor jamoasiga xalq qo'shiqlarining mohir ijrochisi, xushovoz havaskor xonanda Tamara Jo'raboeva yetakchilik qilib kelmoqda.

Jamoa a'zolari tez-tez tuman hududidagi qishloqlarda bo'lib, o'z san'atlarini namoyish etish bilan bir qatorda o'sha joylarda aytiladigan xalq qo'shig'i, lapar, o'lanlarini to'playdilar. Ayniqsa, to'y marosimlarida, sayl-tomoshalarda ijro etiladigan qo'shiqlarning qadimiy namunalari tiklash yuzasidan tinimsiz ish olib boriladi. "Chashma" folklor-etnografik jamoasining repertuari bilan tanishganimizda, dastaning bisotida "YOr aylanay", "Yangiqo'rg'onga keling", "Yangiqo'rg'on qizlari", «La'lixon», «Ho-ho-yali», «Namanganga boringlar», «Suv bo'yida o'ltirib», «Charxim g'uv-g'uv etadi», «To'p sada», «Bo'yloringdan aylanay», «Zarpechak», «YOr aylanay», «qoshingni qaro qilma», «Navro'z keldi», «Tomga sepdim sedona», «Bu gulshan soz» kabi xalq og'zaki badiiy ijodining mumtoz namunalari bilan bir qator o'lan qo'shiqlari ham muhim o'rin tutishining guvohi bo'ldik.

O'zining jonbaxsh qo'shiqlari bilan Yangiqo'rg'on xalqini xushnud etib kelayotgan «Chashma» folklor-etnografik dastasi ijrosidagi o'lan qo'shiqlari Namangan viloyati hududida qadimdan ijro etib kelingan matnlardan tashkil topganligi e'tiborga molikdir. Jamoa ijrosida yangragan o'lan namunalari shu tumanga xos qo'shiqchilik an'analari o'z aksini topgan:

*Bismillosin, ko'zingdan, Bismillosin,  
Bismillodan o'lanni kim tinglasin,  
Bismillodan o'lanni bizlar aytsak,*

*Kaptar, bo'yin, dutor bel qiz tinglasin.*

*Boshla desang o'lanni men boshlayin,  
Borasolib oldingga yonboshlaylin,  
So'raganing bizlardan o'lan bo'lsa,  
Beshning olti og'iz oldinga optashaylin.*

Bu matnda o'lanchilikning an'anaviy ijro usuli saqlangan bo'lib, odatda o'lanlar yigit tomonidan aytiladigan «Bismillosin, ko'zingdan, bismillosin» tarzidagi an'anaviy misralar bilan boshlangan. O'lan ijrosini «Bismillo» bilan boshlash o'ziga xos ijroviy an'ana bo'lganligini folklorshunoslar yozib olgan materiallar ham tasdiqlaydi. Masalan, Namangan viloyatining Chortoq tumanida yashovchi 1922 yilda tug'ilgan Rahmonali Haydarovdan 1950 yilda M.Afzalov yozib olgan quyidagi o'lan fikrimiz dalilidir:

*Bismillodan boshlasam shayton qochar,  
Elga davlat kelganda mehnat qochar,  
Qo'sh xo'kizni qo'lingga olib yursang,  
Xo'jan Xizr avliyo yo'ling ochar.*

*Qizib-qizib qo'yaman qizni ko'rsam,  
Qizni olaman deyman molni yig'sam,  
Yiqqan-tergan molimni qirga haydab,  
Uyalaman ovulingda yayov yursam [3].*

Shu tariqa boshlangach o'lan ijrosining keyingi bandlari «tanishuv-so'rashuv to'rtliklari»dan iborat bo'lgan:

*Qarg'a deyman ko'zingdan, qarg'a deyman,  
Qarg'a uya soladi jarga deyman,  
Ko'rmaganga ko'p vaqt-oylar o'tdi,  
O'lan bilan co'rashay "xorma" deyman.*

*O'lanlarim, ko'zingdan, o'lanlarim,  
Sen bo'lding shu dunyoda gumondorim,  
Sen bo'lsang shu dunyoda gumondorim,  
Kuya-kuya kul bo'ldi suyaklarim.*

«Chashma» folklor jamoasi ijrosidagi o'lanlarning matnida Namangan viloyatida qadimdan an'ana bo'lib kelgan o'lanchilikning ijro usuli saqlangan. Bunga ko'ra, har bir band qaysi so'z bilan boshlangan bo'lsa, javob o'lani ham o'sha so'z bilan boshlanishi shart bo'lgan. Masalan:

*Ovushtirgan, ko'zingdan, ovushtirgan,  
Urishtirmay qo'ymaydi chaqishtirgan,  
Izlaganim sen eding topib oldim,  
Tabiatdan aylanay topishtirgan.*

*Ovushingdan, ko'zingdan, ovushingdan,*

*Yurolmaysan akkori kovushingdan,  
Qushga taqqan qo'ng'iroqday shildiragan,  
Akanq seni aylansin tovushingdan.*

Ma'lumki, o'lan qo'shiqlari xalq orasida g'oyat keng ommalashgan bo'lib, uning Namangan viloyati tumanlarida qayd qilingan namunalari matn jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan variantlarga ega. Bunday farqlanishlar turli hududlarda yashovchi o'lanchilarning o'zaro aytishuvlari va bir-biriga bo'lgan ijodiy ta'sirida yuzaga kelgan. «Chashma» folklor-etnografik dastasi repertuaridan o'rin olgan o'lan qo'shig'ida ham «Olatov», «Qoratorov», «Qorasuv», «Chinoz» singari boshqa hududlarga xos joy nomlari uchrashi bu bandlar kelib chiqishiga ko'ra boshqa hududlarda yashovchi o'lanchilar repertuari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

*Chinozg'ina,  
Aylonmaydi tegirmon suvsizg'ina,  
Quruq-bekor turgandan ne chiqadi,  
O'lan aytib turaylik birozg'ina.*

«Chashma» folklor-etnografik jamoasi repertuaridagi o'lan qo'shiqlarining o'ziga xos jihatlaridan yana biri unda Ohangaron o'lanchiligiga xos belgilarning uchrashidir. Chunki Namangan viloyatining Pop tumanida yashovchi o'lanchilar qo'shni Ohangaron tumanining tog'li hududlarida istiqomat qiluvchi o'lanchilar repertuaridan xabardor bo'lganligi shunday ijodiy ta'sirning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bunday ijodiy ta'sirning o'ziga xos bir ko'rinishi ohangaronlik o'lanchilar ijrosiga xos band tuzilishi, ya'ni bandning birinchi misrasi bir yoki ikki so'zdan iborat bo'lishi holati kuzatiladi:

*O'lan ovlab,  
Ikki qo'ling yara bo'ldi janjal bovlab,  
Kelarmidim bu to'yga, kelmasmidim,  
Kelib qoldim, arulash, ko'ngling ovlab.  
Bo'zi bo'lsam,  
Mangiragan gaylarda ko'zi bo'lsam,  
Hech armonim ichimda qolmas edi,  
Arulashning og'zida so'zi bo'lsam.*

«Chashma» folklor-etnografik jamoasi repertuarida bunday o'lan qo'shiqlarining ko'p o'rin tutishi bejiz emas. Chunki Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on, Pop tumanlarida ish olib borgan folklorshunos olimlar bu hududlarda o'lan qo'shiqlari juda keng ko'lamda tarqalganligini aniqlashgan. Shuning uchun ham O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor ekspeditsiyasi ham Namangan viloyatiga kelganida albatta Yangiqo'rg'on tumaniga kirib o'tgan. Ana shu ekspeditsiyalar davomida yangiqo'rg'onliklarning ajoyib o'lanlari ham yozib olingan. Xassos folklorshunos olimi Zubayda Husainova 1975 yil 1 iyunda

Namangan viloyatining Pop tumanidagi Qurnos qishlog'ida yashovchi Basiya buvi Omonovadan o'lan qo'shiqlarining bir nechta namunasini yozib olgan [4].

"Chashma" folklor-etnografik jamoasi repertuaridagi o'lan qo'shiqlari badiiy jihatdan nihoyatda pishiqligi, tuman o'lanchilari tomonidan an'anaviy tarzda ijro etib kelinganligi, keng tarqalganligi hamda ijrochilarning badiiy iqtidori naqadar yuksakligi bilan ajralib turadi. Bu materiallar o'lan janrining hozirgi tarixiy-folkloriy jarayondagi roli va ma'naviy-madaniy hayotda tutgan o'rnini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ijro o'rni va poetik shakliga ko'ra o'lan janrining o'ziga xos lokal ijro usulini namoyish etadigan bu materiallar ohangdorligi, ramziy obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa an'anaviy xalq qo'shiqchiligi folklor-etnografik jamoalar repertuarini boyituvchi muhim manbalardan biri ekanligini isbotlashi bilan bir qatorda, ijrochilarning ijodiy hofizasi va badihago'yiligi chek-chegara bilmasligidan dalolat beradi.

Demak, Yangiqo'rg'on tumanida faoliyat yurgizayotgan «Chashma» folklor-etnografik jamoasi o'z tumanidagi qishloqlarda istiqomat qiluvchi folklor ijrochilaridan turli janrlarga oid matnlarni izchil to'plab, marosim va udumlarni chuqur o'rgangan holda qadimiy matnlarning yangicha sahnaviy talqinlarini yaratish borasida izchil ish olib bormoqdalar. O'lan janrining folklor-etnografik jamoa repertuaridagi talqinlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki:

a) birinchidan, bunday izlanishlar natijasida to'plangan xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari, jumladan, o'lan qo'shiqlari folklor jamoasining yangi dasturlarini tayyorlashga zamin vazifasini o'taydi;

b) ikkinchidan, tumanda asrlar davomida shakllangan va zukko ijrochilarning badiiy iqtidori tufayli takomillashib, rivojlantirib kelingan o'lanning qadimiy matnlari hamda ijro yo'li saqlab qolinadi;

v) uchinchidan, bugungi kunda ish olib borayotgan folklor-etnografik jamoalar repertuaridagi o'lan namunalari mazkur janrning folklorshunoslar tomonidan folklor ekspeditsiyalari davomida yozib olingan matnlari bilan qiyosiy o'rganish asosida tumandagi tarixiy-folkloriy jarayonning tadrijiy taraqqiyotiga doir nazariy xulosalar chiqarish imkoni tug'iladi.

"Chashma" folklor-etnografik jamoasi repertuaridagi o'lan qo'shiqlari xalq badiiy merosining benihoya boy ekanligini yaqqol namoyon etadi. Bu qo'shiqlarning badiiy yetukligi va an'anaviy tarzda ijro etilishi, ularning turli avlodlar tomonidan asrab-avaylab kelinganligidan dalolat beradi. Haqiqatan ham, ularning mazmun va shakl jihatidan uyg'unligi va keng tarqalganligidan tashqari, ijrochilarning mahorati, badiiy iqtidori bu janrni yanada qimmatli qiladi.

O'lan qo'shiqlarining poetik tuzilishi ramziy obrazlarga boy bo'lib, xalq hayotining turli jihatlarini, uning dunyoqarashini va ehtiroslarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu qo'shiqlarda ohangdorlik va maxsus lokal ijro usullari,

hududga xos bo'lgan rang-baranglik kuzatiladi. Bunday hususiyatlar nafaqat xalq og'zaki ijodiyotining noyob jihatlarini, balki hozirgi madaniy hayotdagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

An'anaviy folklor-etnografik jamoalar, xususan "Chashma" jamoasi repertuarining o'lan janriga bo'lgan hissasi shundan iboratki, ular milliy madaniy merosni saqlash va yosh avlodga yetkazishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, bu qo'shiqlar ijrochilarning badiiy improvizatsiya (badihago'ylik) qobiliyati va xotira kuchini namoyon qiladi. Bularni o'rganish, hech shubhasiz, xalq og'zaki ijodining mazmun va mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yo'l ochadi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi materiallar nafaqat xalq ijodini boyitishda, balki uning madaniy va ma'naviy merosini kelajakka yetkazishda qimmatli manba hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldosheva S. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. - Toshkent: Fan, 1999; Yana o'sha. O'zbek folklor-etnografik jamoalari. - Toshkent: Fan, 2007.
2. Jo'raev M. Folklor-etnografik jamoalar repertuari-folklorizmning yangi tipi sifatida // Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Boysun, 2002. - B.35-36.
3. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№1101.
4. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№1698/10. D.1.